

TILSHUNOSLIKDA KOMMUNIKATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

F.T.Temirova

O'zDJTU mustaqil taqiqotchisi Telefon: +9989787103070
yagona199212@mail.ru

Annotatsiya: Muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsiyonal, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g'oyalari qaror topishiga xizmat qiladi. Muloqot muvafaqqiyatining negizi shaxsnинг ruhiy dunyosi, ehtiyoji motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi fazilatlar, sifatlar namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, na'munalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi.

Kalit So'zlar: kommunikatsiya, kinetika, paralingvistika, proksemika, visual aloqa, takesika;

Аннотация: Общение, как социально-психологическое явление, принимает участие во всех сферах общественной жизни и возникает как потребность в материальном, духовном, культурном, эмоциональном, мотивационном аспектах сотрудничества. Удовлетворение различных потребностей, возникающих у человека, зависит от ритуала общения, а межличностные отношения служат утверждению идеалов совершенного поколения и совершенного человека. В основе успешности общения лежит проявление и развитие таких качеств, как духовный мир человека, потребности, мотивация, черты характера, индивидуально-типологические особенности, способности, убеждения. Общение подготавливает основательную почву для самокоррекции, перевоспитания, реализации личностного потенциала на основе внешних положительных воздействий и примеров.

Ключевые слова: общение, кинетика, паралингвистика, проксемика, зрительная коммуникация, таекесика;

Abstract: Communication, as a socio-psychological phenomenon, takes part in all spheres of social life and arises as a need for material, spiritual, cultural, emotional, motivational aspects of cooperation. Satisfying the various needs that arise in a person depends on the ritual of communication, and interpersonal relations serve to establish the ideals of a perfect generation and a perfect person. The basis of the success of communication is the manifestation and development of qualities, qualities such as a person's spiritual world, needs, motivation, character traits, individual-typological characteristics, abilities, beliefs. Communication prepares a thorough ground for self-correction, re-education, realization of personal potential on the basis of external positive influences and examples.

Key words: *communication, kinetics, paralinguistics, proxemics, visual communication, tactics;*

Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir birlari bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj tug'iladi¹. O'zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining asosiy unsuri hisoblanadi. Psixologiya lug'atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1. Muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;

2. Muloqot – belgilar tizimi orqali subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi.

Muloqotning yana bir jihatni munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihatni muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishidadir. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perceptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Shuningdek, muloqotning vazifalari (funksiyalari) ham mavjud. Muloqotning funksiyalari xilma-xil bo'lib, eng keng tarqalgan B.F. Lomov taklif etgan tasnifga ko'ra ular quyidagilardan iborat²:

1. Informatsion-kommunikativ funksiya – axborot almashinuvini ta'minlash vazifasi. Axborot almashinushi turli belgilar, tizimlar orqali amalga oshiriladi. Odadta verbal (unda belgilar tizimi sifatida nutq ishlatiladi) va noverbal (unda nolisoniy belgilar tizimi ishlatiladi) kommunikatsiya farqlanadi.

Noverbal kommunikatsiya bir necha shakldan iborat:

- Kinetika (imo-ishora, mimika, pantomima)
- Paralingvistika (ovoz lokalizatsiyalari, pauzalar)
- Proksemika (masofa va vaqt me'yorlari)
- Vizual aloqa (ko'zlar orqali)
- Takesika (jismoniy aloqa)

2. Kishilar muloqot jarayonida verbal, jismoniy, noverbal yo'llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullashtiruvchi va korreksiyalovchi tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Affektiv-kommunikativ funksiya – inson emotsiyal sohasining regulyatsiya (boshqarish) qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emotsiyal holatlarining eng muhim determinantidir. Chunki turli hissiy holatlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va o'zgaradi³. L.A. Karpenko taklif⁴ etgan tasnifga ko'ra muloqotning quyidagi vazifalari ajratiladi:

¹ М.Максудова. Мuloqot psixologiyasi. 0 'quv qo'llanma. — Т.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.—8-9b]

² Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. М., 1984, с.242-271]

³ М.Максудова. Мuloqot psixologiyasi. 0 'quv qo'llanma. — Т.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.—8-9b

- aloqa o'rnatish vazifasi – suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash
- informatsion vazifa – suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikr va rejalarни almashish;
- faoliyatga undash – suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullash (rag'batlantirish)
- koordinatsion vazifa – suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish;
- tushunishni ta'minlash vazifasi – suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;
- amotiv vazifa – suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish;
- munosabat o'rnatish vazifasi – munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rinni, mavqeyini aniqlash;
- ta'sir ko'rsatish vazifasi – suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgartirish;

Demak, muloqot murakkab polifunksional, ya'ni ko'p vazifali hodisadir.

Muloqot – shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, tushunadilar⁵.

Amerikalik jurnalist G.Lassuel⁶ 5 unsuridan iborat bo'lgan kommunikativ jarayonning quyidagi modelini taklif etadi:

- Kim (axborot kim tomonidan uzatilmoqda)
- Nima (qanday axborot uzatilmoqda)
- Qanday (axborot qanday yo'l bilan uzatilmoqda)
- Kimga (axborot kimga uzatilmoqda)
- Qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador uzatildi)

Kommunikativ jarayon aktsial (bunda axborot ayrim konkret odamlargagina yo'naltiriladi) yoki retial (bunda axborot bir qancha ehtimol qilinayotgan retsipientlarga yo'naltiriladi) xarakterda bo'lishi mumkin. Kommunikator retsipient uni qanchalik tushunayotganini "kommunikativ rollar" o'zgargach biladi. Chunki retsipient kommunikatorga aylanib avvalgi kommunikatorga qabul qilgan axborotning mazmunini qanday tushunganligini bildiradi.

Kommunikatsiyaning 2 ta asosiy verbal va noverbal turi mavjud.

Verbal muloqotning belgilar tizimiga kishilar nutqi kiradi. M.Y.Konavalenko va V.A.Konavalenkolaning o'quv qo'llanmalarida keltirilishicha "Nutq axborotni uzatishning asosiy vositalaridan biridir. Nutqda orqali til o'zining kommunikativ

⁴ Психология. Словарь. Составитель Л.А. Карпенко. /Ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. М., Политиздат, 1990

⁵ M.Maxsudova.Muloqot psixologiyasi. 0 'quv qo'llanma. — Т.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.— 31-32b]

⁶ Lasswell H. Structure and Function of Communication in Society / Bryson J.(ed.).The Communication of Ideas. N.Y.: The Free Press, 1948

funktsiyasini bajaradi”⁷. Noverbal muloqot – noverbal xabarlar orqali kishilarning o’zaro ma’lumot almashinuvi. Shuningdek, ushbu muloqot turini o’rganishga paralingvistika, ekstralinguistika, psixosemiotika hamda sotsiolinguist olimlar ham qiziqish bildirgan.

Ko’p izlanuvchilarning fikricha “noverbal kommunikatsiya” termini so’nggi yillarda juda keng ma’noni o’ziga qamrab olgan tushuncha ekanligini ta’kidlab, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu termin “nutqsiz til” nomini olganini aytishmoqda⁸. So’nggi yillarda tilshunoslikda noverbal kommunikatsiyani o’rganishga ba’ishlangan ko’plab ilmiy ishlar bajarilganini aytib o’tish kerak. Jumladan, G.E. Kreydlinning izlanishlarini bu sohadagi muhim ish deyish mumkin. U o’zining “Noverbal semiotika: tana tili va tabiiy til”⁹ nomli risolasida noverbal semiotikani tashkil etuvchi bir nechta fanlarni sanab o’tadi.

1. Paralingvistika – noverbal kommunikatsiya jarayonidagi tovushlar kodlarini o’rganuvchi fan

2. Kinesika - noverbal kommunikatsiyani tashkil etuvchi imo-ishoralarni o’rganuvchi fan

3. Auskultatsiya – muloqot jarayonidagi tovushlarning kishilar tomonidan qanday qabul qilinishini o’rganuvchi fan.

4. Gaptika – kommunikatsiya jarayonidagi taktil harakatlarni tahlil qiluvchi fan.

5. Gastika – oziq-ovqat maxsulotlarining kommunikatsiya jarayoniga ta’sirini o’rganuvchi fan.

6. Olfaksiya – kommunikatsiya jarayonida turli hidlar, oforlarning muloqotga bo’lgan ta’sirini o’rganuvchi fan.

7. Proksemika – suhabatdoshlar orasidagi masofaning muloqot jarayonidagi ahamiyatini o’rganuvchi fan.

8. Xronemika – muloqot davomiyligi, muloqt vaqt va uning struktur semiotik jihatlarini o’rganuvchi fan.

9. Sistemologiya – insonlarni o’rab turgan muhit, ularning o’y-fikrlarining muloqotga ta’sirini o’rganuvchi fan.

Noverbal kommunikatsiya muloqot jarayonida muhim vazifani bajaradi va aynan suhabat jarayonida kerakli vositani tanlash nutqning ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikatsyaning bu turini o’rganishda psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya fanlarining ham ahamiyati katta. Zero, biror voqeа haqida fikr bildirishda odamlar avvalo o’z dunyoqarashi, jamiyatdagi mavqeи va o’zi yashab kelayotgan muhitdan kelib chiqqan holda yondoshadi, bu esa yuqoridagi fanlarning tilshunoslik bilan uzviy bog’liqligidan darak beradi. Tilshunoslik fani murakkab, lekin boshqa tomondan olib qaraganda qiziq fan. Aytib o’tish kerakki,

⁷ Коноваленко М. Ю. Коноваленко Б. А. 2012, с.129–130

⁸ Коноваленко М. Ю. Коноваленко Б. А. 2012, с.135

⁹ Крейдлин Г. Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. - М. : новое лит. Обозрение, 2004. - 581 с. - библиогр. : С. 486-520

tilshunoslikning o'rganilmagan, kashf etilmagan ko'plab tarmoqlari bor. Ayni damda ko'plab yosh izlanuvchilar igna bilan quduq qazigandek sohani yangilab, fanga ko'plab yangiliklar olib kirishmoqda. Bizga ma'lumki, tilshunoslik bir qancha bo'limlardan iborat va har bir bo'lim nutqning aynan bir jarayondagi tuzilishini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Paralinvistik vositalar noverbal kommunikatsiyaning asosini tashkil etarkan, tilshunoslikda bu sohada XX asrning 50-yillaridan boshlab tadqiqotlar olib borilayotgani xaqida ko'plab ma'lumotlar bor. Ammo, noverbal kommunikatsiya vositalaridan odamlar paydo bo'lgan davrdan boshlab foydalanilgan. Tarixdan bizga ma'lum-ki, ilk odamlar o'zaro muloqot qilish uchun paralingvistik vositlardan foydalanishgan. Shuningdek, o'zlarini himoya qilish, ov qilish, hujumga o'tish va boshqa ko'plab rituallarni bajarishda, verbal kommunikatsiya shakllangunga qadar bo'lgan muddatda noverbal muloqot vositlaridan foydalanishgan.¹⁰

Paralingvistika termini fanga ingliz tilshunosi A. Xill tomonidan 1940 – yilda kiritilgan. A. Xill o'zining tadqiqotlarida paralingvistik vositlarning nutq bilan bog'liq jixatlariga e'tibor qaratgan. Ammo, fandagi bu yangilik sovet tilshunosi N.V. Yushmanovning e'tiborini 1930-yillarda o'ziga jalb qilganini uning "Ekstranormal fonetika" asaridan ko'rishimiz mumkin¹¹. "Paralingvistika" so'zi grekcha "para"¹² orqali, birga ma'nosida tarjima qilinadi va tilshunoslikda bevostida nutq orasida, nutqga yaqin ma'nosini beradi. Bizga ma'lumki paralingvistika bu – verbal muloqot to'ldiruvchi noverbal vositalarni (lingvistik bo'limgan) o'rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi.

Paralingvistikaning obyekti sifatida muloqot jarayonida foydalaniladigon paralingvistik vositalarni olinadi. Hamda, paralingvistik vositalarni ikkiga, biologik va semiotikka ajratish mumkin.¹³ Biologik paralingvistik vositalar yuz ifodalari va ba'zi tana harakatlari va imo-ishoralarini o'z ichiga oladi. Biologik paralingvistik vositalar tug'ma bo'ladi.

Semiotik paralingvistik vositalarga, imo-ishoralar, yo'l belgilari, yo'l boshqaruvchi signallari, reklama belgilari va boshqalar kiradi¹⁴.

Noverbal kommunikatsiyada belgilar tizimi sifatida quyidagilardan foydalaniladi:

- Optik – kinetik tizimga imo-ishoralar (qo'l motorikasi), mimika (yuz motorikasi), pantomimika (butun gavda motorikasi) kiradi. Ushbu belgilarning

¹⁰ Почепцов Г. Г. Теория коммуникации/ Г. Г. Почепцов. – М.:Рефл-бук., 2001. – 656 с

¹¹ Юшман Н. В. Экстронормальная фонетика [Текст] / Н. В. Юшман. –АН СССР, ф. 77, ОП. 5, № 251, 1946. – 165 с.

¹² [Николаева Т. М. Паралингвистика // [Лингвистический энциклопедический словарь](#) / Главный редактор В. Н. Ярцева. — М.: [Советская энциклопедия](#), 1990. — 685 с. — ISBN 5-85270-031-2.

¹³ Панина Н. И. Паралингвистика: Методическое пособие / Н. И.Панина. – Кострома: КГТУ, 2003. – 35 с.

¹⁴ Каменская О. Л. Лингвистика на пороге 21 века /О.Л.Каменска //Лингвистические маргиналии: сб. науч. трудов. – М.: МГЛУ, 1996.– Вып. 432. – С. 13 – 21.

muloqotdagi ahamiyati shunchalik kattaki, ularni o'rganish uchun alohida soha – kinesika shakllangan.

○ Paralingvistik tizim ovoz vokalizatsiyasidan iborat bo'lib, unga ovoz sifatlari, diapazoni kiradi. Ekstralingvistik tizimga to'xtalishlar, yo'talib qo'yishlar, yig'i, kulgu, nutq tempi kiradi.

○ Proksemik tizimga kommunikativ jarayon ishtirokchilarining fazodagi joylashuvi va kommunikatsiya nutqi kiradi.

○ Vizual kontakt - ko'zlar orqali muloqot kilish. Dastlab muloqotning bunday turi faqat intim muloqot doirasidagina bo'lishi mumkin deb hisoblangan. Ammo so'nggi tadqiqotlar vizual kontakt boshqa sohalarda, ya'ni tibbiyot, pedagogika, boshqaruv kabilarda ham kuzutilishini isbotlamoqda.

Kinetik belgilar tizimi – imo-ishoralar, mimika va pantomimikdan iborat. Masalan, rost so'zlayotgan kishi ochiq kaftlarini ko'rsatishdan qo'rqlamaydi. Yolg'onchi esa kaftlarini berkitishga harakat qiladi. Suhbatdoshdan o'zini yuqori tutish belgilaridan biri – butun kaft cho'ntakda bo'lib, bosh barmoqning tashqariga chiqarib qo'yilganidir. Shubhalanuvchanlikni odatda og'izni qo'l bilan himoyalash, burunga tegib qo'yish, qovoqlarni silab qo'yish, quloq ortini yoki bo'yinni qashlab qo'yish bildirib qo'yadi. Daxanni silab qo'yish qaror qabul qilishga qiynalishni ko'rsatadi. Asabiylit xolati kishining biror narsaga – bilak uzugi, soati va shu kabilarga xech qanday maqsadsiz qayta-qayta tegib turishi ostiga yashirinadi. Stulning ustiga "minib" oyoqlarni keng yozib o'tirishdan odamdagagi dominantlikka (ustunlikka) moyillikni sezish mumkin. Oldinga chiqarilgan oyoq, ayniqsa, uning uchi bilan yer depsinayotgan bo'lsa, dominantlik yaqqol namoyon bo'ladi. Bosh orqasiga chalishtirilgan qo'llar, ayollarda belga tiralgan mushtlar xam dominantlikka intilish munosabatidan darak beradi. Kiyimdagagi yo'q changlarni qoquvchilar bunday harakati bilan suhbatdosh fikriga e'tiborsizligini yoki qo'shilmasligini ko'rsatadi. Agar kishi dahanini kafti bilan tirab o'tirgan bo'lsa, diqqat bilan tinglayotgani va o'ylanib qolganidan darak beradi.

Proksemik belgilar tizimi kommunikativ jarayon ishtirokchilarining fazodagi joylashuvidan iborat. Bu yo`nalishning asoschisi amerikalik E. Xoll bo`lib, uning o`zi proksemikani "Fazoviy psixologiya" deb atagan¹⁵. Masalan, u amerikaliklarga hos bo`lgan suhbatdoshning sherigiga nisbatan fazoviy joylashuvi xususiyatlarini aniqlab, muloqotning turli sharoiti va shakliga qarab, fazoviy yaqinlashuvning o`rtacha qiymatini aniqlagan. Muloqot davomida kishilar o'rtasidagi munosabat 4 xil hududdan birida amalga oshiriladi. Jumladan, intim hudud (oralig'i 0-45sm) ga eng yaqin va tanish odamlargina kiritiladi. Uning asosiy belgilari: ishonch muhiti, past ovoz, taktil aloqa. Bu xududga begonalar kirishi organizmda muayyan fiziologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. (yurak urishi tezlashadi, adrenalin ajralishi ko'payadi). Shaxsiy xudud (45-120 sm) da tanishlar, hamkasblar muloqoti amalga oshiriladi. Uning asosiy belgilari: vizual kontaktning uzoqroq davom etishi, verbal muloqotning noverbal

¹⁵ Hall E.T. The Silent Language. — Fawcett, 1968.

muloqotdan ustun bo'lish. Ijtimoiy xudud (120-400 sm) da begona kishilar muloqoti amalga oshadi. Uning asosiy belgilari: muloqotning rasmiy xarakterga ega bo'lishi, suzbatdoshlar bir-birini yaxshi tanimasligi. Ommaviy xudud (400 sm va undan ortiq) da kishilarning katta guruhi bilan muloqot qilinadi. Uning asosiy belgilari: bevosita kontaktning yo'qligi, noverbal signallar rolining ortishi.

Vizual kontakt ko'zlar orqali amalga oshiriladigan aloqa. Psixologik tajribalardan ma'lum bo'lishicha, suhbatdoshlar bir-birining ko'zlariga tikilishi bilan o'zidagi yoqtirish, sadoqat yoki tajovuzkor reaksiyalarga tayyorlikni ifodalaydi. Yoqimsiz mavzudagi suxbat davomida kishilar ko'zlar to'qnashuvidan o'zlarini saqlaydilar. Ayollar vizual kontaktga ko'proq moyildirlar. Odamning emotsiyalarda xolati ta'sirida ko'z qorachig'i shakli o'zgaradi. Masalan, salbiy emotsiyalar ta'sirida ko'z qorachiqlari torayadi, ijobiy holat kuzatilganda esa aksincha qorachiqlar kengayadi.

Noverbal muloqot vositasini o'rganish metodlaridan biri madaniyatlararo tadqiqot usullaridir. Uotson va Breyve amerikalik va arab talabalarini suxbat jarayonini uzoqdan turib kuzatgan. Ularning suxbat jarayonida bir - biriga qanday masofada turishganini tadqiqot qilganlar. Muloqot jarayonida ularning tana xarakatlari bir-biriga o'xshamagan. Boshqa tadqiqotlarda suxbat jarayonidan tana kontaktlari ularning meyorlari o'rganilgan. Ekman (1972) yunonlarni suxbat jarayonida gazabini bosib turish qobiliyatini o'rganib, biznesmen, agar uni xech kim kuzatmayotganini sezsa, bunday xissiyot xolatlari ifodasiga erk berishni kuzatgan.¹⁶

Keltirilgan ilmiy qarashlarga asoslanib shuni aytish mumkun-ki, noverbal kommunikatsiya vositalari muloqot jarayonida muhim vazifani bajaradi hamda nutqni to'ldiradi kommunikantlarning emotsiyal holatlarini chuqqurroq anglashda muhim omil bo'lib hizamt qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Maxsudova.Muloqot psixologiyasi. 0 'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.8-9b
2. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. М., 1984, с.242-271
3. M.Maxsudova.Muloqot psixologiyasi. 0 'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.8-9b
4. Психология. Словарь. Составитель Л.А. Карпенко. /Ред. А.В.
5. Петровского, М.Г. Ярошевского. М., Политиздат, 1990
6. M.Maxsudova.Muloqot psixologiyasi. 0 'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.31-32b

¹⁶ Ekman, P.1972. Universal and Cultural Differences in Facial Expression of Emotions. In J. Cole (Ed.), Nebraska Symposium on Motivation. pp. 207-283. Lincoln: University of Nebraska Press

7. Lasswell H. Structure and Function of Communication in Society / Bryson
8. J.The Communication of Ideas. N.Y.: The Free Press, 1948
9. Коноваленко М. Ю. Коноваленко В. А. 2012, с.129–130
10. Коноваленко М. Ю. Коноваленко В. А. 2012, с.135
11. Крейдлин Г. Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. - М. : новое лит. Обозрение, 2004. - 581 с. - библиогр. : С. 486-520
12. Почепцов Г. Г. Теория коммуникации/ Г. Г. Почепцов. – М.:Рефл-бук., 2001. – 656 с
13. Юшман Н. В. Экстраромальная фонетика. Н. В. Юшман. –АН СССР, ф. 77, ОП. 5, № 251, 1946. – 165 с.
14. Николаева Т. М. Паралингвистика // Лингвистический энциклопедический словарь / Главный редактор В. Н. Ярцева. — М.: Советская энциклопедия, 1990. 685 с. ISBN 5-85270-031-2.
15. Панина Н. И. Паралингвистика: Методическое пособие/Н.И.Панина. – Кострома: КГТУ, 2003. – 35 с.
16. Каменская О. Л. Лингвистика на пороге 21 века / О.Л.Каменска //Лингвистические маргиналии: сб. науч. трудов. – М.: МГЛУ, 1996.– Вып. 432. – С. 13 – 21.